



SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar)

Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 644,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 5.5 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 49,0 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 5.6 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 595,0 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 5.5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 57,1 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 0.6 % ga ko`paygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari Termiz sh(8,7 %), Qumqurg'on (6,6 %) Termiz t (6,5 %) Denov (6,0 %) va Sherabod (5,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga o'sdi va 49,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,6 % ulushiga to`g`ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 595,0 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 5,5 % ga o'sdi. viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,4 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'r'a, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99.2 %), Uzun (97.6 %), va Denov (97.2%) , tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7.6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (21.5 %), Termiz (14.1%) va Jarqo'rg'on tumanlarida(6.1 %) kuzatilgan.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Denov tumani (21,6 foiz), Termez shahri (20,9 foiz), Sho'rchi (9,,1 foiz) va Sherabod (5,8 foiz), tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	49,0	105,6	595,0	105,5
Termiz Sh.	28,9	140,2	106,0	102,5
Oltinsoy	0,8	60,2	27,5	106,7
Angor	1,3	88,4	27,6	103,0
Boysun	1,4	85,3	25,9	104,5
Muzrabot	0,2	27,5	25,4	103,9
Denov	3,8	69,8	135,4	107,7
Jarqo'rg'on	2,2	81,0	33,5	106,4
Qumqo'rg'on	1,4	70,5	27,3	109,2
Qiziriq	1,2	67,4	27,8	105,1
Sariosiyo	1,0	127,1	27,1	104,2
Termiz	2,5	83,9	14,9	111,3
Uzun	0,6	44,6	24,3	104,7
Sherobod	1,6	121,5	35,8	105,2
Sho'rchi	2,1	90,4	56,5	106,4

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)


Jumladan, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 %ni tashkil etib, 12,3 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 % o`sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 91,5 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

SURXONDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar)

Yanvar oyida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 160,5 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 9,0 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko`ra, 130,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 12,3 % ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 81,6 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Qiziriq, (99,9%), Angor (99,4%) Sherobod (98,6%) va Termiz (97,0) tumanlarida yuqori bo`lgan.

Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 18,4 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Termiz sh (39,0%), Muzrabot (33,3%) va Qumqurg'on(33,3%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	160,5	109,0	29,6	96,5	130,9	112,3
Termiz Sh.	34,2	122,4	13,3	143,4	20,9	111,9
Oltinsoy	7,5	114,8	2,4	119,0	5,1	112,9
Angor	9,6	112,0	0,1	22,8	9,5	114,9
Boysun	0,7	108,9	0,1	75,3	0,6	112,3
Muzrabot	4,6	92,3	1,2	63,4	3,4	110,4
Denov	39,2	108,2	6,7	91,3	32,5	112,5
Jarqo'rg'on	9,7	88,3	2,3	53,2	7,4	111,5
Qumqo'rg' on	4,5	98,7	1,5	80,1	3,0	111,6
Qiziriq	8,8	98,9			8,8	112,9

Sariosiyo	6,4	107,6	0,4	66,7	6,0	112,4
Termiz	19,6	112,4	0,6	104,9	19,0	112,7
Uzun	3,3	106,4	0,6	87,8	2,7	111,2
Sherobod	9,2	109,4	0,1	56,1	9,1	110,8
Sho'rchi	3,2	108,4	0,3	88,0	2,9	111,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**





Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Jarqo'rg'on tumanida (88,3 %) va eng yuqori o'sish esa Termiz shahar (122.4%) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
(0371) 230-85-82